# ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH VA YOSHLARNI ISH BILAN TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Ilmiy rahbar
Zokirova Munisa Jamoliddin qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Statistika kafedrasi katta o'qituvchisi
munisahusniddinova9@gmail.com
**Tilavayeva Shaxruza Yuldash qizi**
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti
"Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari" fakulteti
RST-77 guruh talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada mehnat bozoridagi ishsizlik darajasini pasaytirish, xususan, yoshlarni ish bilan ta'minlash borasidagi tizimli muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan yoshlar bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida yosh mutaxassislarning kasbiy malakasi va mehnat bozori talablari o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish masalalari statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Maqola yakunida bandlik dasturlari samaradorligini oshirish va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ishsizlik, yoshlar bandligi, mehnat bozori, raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik, professional malaka, ish o'rinlari, davlat dasturlari.

**Kirish**

Yoshlar mamlakat va hududlardagi o'zgaruvchi jarayonlar, iqtisodiy o'sish va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy davomchilari hisoblanadi. Respublikamiz Prezidenti bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo'lgan yoshlargina sifatli, jadal va

innovatsion taraqqiyotning eng muhim sharti va garovi bo‘la olishi, aynan ular mamlakatning buyuk kelajagini ta’minlashi mumkinligi, shunga ko‘ra, O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi etib belgilanganligi, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimi amalga oshirilayotganligi bir necha bor ta’kidlangan. So‘nggi 5 yil davomida o‘quv yurtlarini 2 million 500 ming nafardan ortiq yoshlar tamomlab, hozirgi vaqtda mamlakatimizda barpo etilgan zamonaviy korxonalar va fermer xo‘jaliklarida mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizning saflarini to‘ldirmoqda. Bu jarayonlar hududlarda yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solishga ilmiy jihatdan zamonaviy yondashuvni talab qiladi. Shu munosabat bilan ishchi kuchi bozorida yoshlarning ish bilan bandligi muammosini eng avval hududlarda yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish yo‘li bilan hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda yoshlarning ishchi kuchi bozori uchun xos bo‘lgan ziddiyatlar yoshlarning mehnatga bo‘lgan talabi, imkoniyatlari va ularni ish bilan ta’minlash o‘rtasidagi nomutanosibliklarning mavjudligi hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish muhimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus mazmuni va uni amaliyotga joriy etish afzalliklari haqida tushunchalarni rivojlantirish, shuningdek, har bir tashabbus bo‘yicha talaba-yoshlarning qiziqishlarini oshirish maqsadida joylarda bir qator tadbirlar o‘tkazilmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda 2017–2021-yillar uchun Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, ayniqsa, sanoat, qishloq xo‘jaligi, kapital qurilish, transport-kommunikatsiya, servis va xizmat ko‘rsatish, nodavlat ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarida ishchi kuchiga bo‘lgan talab izchil oshmoqda.

Mamlakat aholisining 20,5 - 21 million nafari yoki 54-55 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. Yoshlarning 51.5 % i erkak, 48.5 %i esa ayol jinsiga mansub.

Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017–2020-yillarda 50 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi, 30 iyun “Yoshlar kuni” deb e’lon qilindi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Oliy Majlis Senati qoshida 100 nafar va Qonunchilik palatasi qoshida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlardan iborat “Yoshlar parlament”- lari, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tashkil qilindi.

“Mahallabay” o‘rganishlar orqali yoshlarning bandligini ta’minlash, kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlikka jalb etish, shuningdek, ular o‘rtasida madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari va kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida yangicha tizim asosida barcha tuman (shahar)larda “Yoshlar dasturlari”ni amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi.

Har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo‘lgan ishsiz yoshlar kiritiladigan “Yoshlar daftari” tizimi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzildi. Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi. Shuningdek, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yilga mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, deb nom berildi.

Respublikada yoshlar manfaatlarini himoya qiladigan 830 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari faoliyat olib bormoqda. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlarga oid quyidagi “Beshta muhim tashabbus” ilgari surildi:

– Madaniyat.

– San’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish.

– Yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

– Yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish.

– Xotin-qizlar bandligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar.

Hududlarda 72 ta raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etilib, “Ma’rifat karvoni” tadbirlari doirasida 3 milliondan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi hamda “Yosh kitobxon” tanlovi, “Bir million dasturchi” kabi o‘nlab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadigan ta’lim tizimida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi to‘rt yilda mamlakatda oliy ta’lim muassasalari soni 50 foizga (43 ta yangi) oshirilib, ularning soni 121 taga, yoshlarning oliy ta’lim muassasalariga qamrovi 9 foizdan 25 foizga yetkazildi. 4 ta Prezident maktablari, 5 ta “Temurbeklar maktabi” va 9 ta ijod maktablari barpo etilib, “Zamonaviy maktab” dasturi joriy etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasiga 2019-yilda o‘tkazilgan saylovlarda 9 nafar (6 foiz) yoshlar deputat etib saylangan bo‘lsa, mahalliy kengashlar deputatlarining 10 foizini yoshlar tashkil etadi.

Respublikada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 22,9 foizi (106 ming 574 tasi) 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning 21,5 foizini (71 ming 467 tani) 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Shuningdek, mamlakatda 3,4 mingga yaqin yosh fermerlar, 7,8 mingga yaqin yosh hunarmandlar faoliyat yuritadi. Respublikada yoshlar va ularning oilalari uchun davlat tomonidan turli shakldagi moddiy yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, o‘tgan uch yilda respublikamizda 5 122 ta yosh oilalar uy-joy bilan ta’minlandi.

Yoshlar siyosati bo‘yicha xorij tajribasidan samarali foydalanish, o‘zaro tizimli hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 13 ta xorijiy yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston 2018-yilda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Yoshlar kengashiga, 2020-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Yoshlar masalalari bo‘yicha kengashiga teng huquqli a’zo sifatida qabul qilindi.

Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e’lon qilindi.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan yoshlarga oid davlat siyosatida erishilgan yutuqlar va ijobiy natijalar bilan bir qatorda quyidagi muammolar mavjud:

1. Ta’limning barcha bosqichlarida ta’lim sifati talab darajasida emas. O‘zbekistonning amaldagi ta’lim tizimi ma’lumotlarni yod olishga qaratilgan bo‘lib, yoshlarning ijodiy va mantiqiy fikrlashi, tanqidiy tahlil qilishi, mustaqil fikr yuritishi va yangiliklar yaratishini rivojlantirishga yo‘naltirilmagan. Natijada, yoshlar hayotda o‘zi mustaqil qaror chiqarishi, jamiyatdagi tezkor o‘zgarishlarga moslashishi, o‘z o‘rnini topishi jarayonlari murakkab kechishi holatlari kuzatilmoqda.

2. Yoshlarni kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli tashkil etilmagan, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash mehnat bozori talablari asosida amalga oshirilmayapti, ya’ni professional ta’lim ishlab chiqarish amaliyotidan uzilib qolmoqda.

Natijada, oliy ta’limni tamomlagan yoshlarning ko‘pchilik qismi mutaxassisligi bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmaydi, xususan, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tahlillariga ko‘ra, bitiruvchilarning faqatgina 26,2 foizi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlab ketishiga to‘liq ishonishini bildirgan.

3. Yoshlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, bandligini ta’minlash, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratishda muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik darajasi 2020-yilning so‘nggi choragida 6,6

foizni (480 ming 261 nafar) tashkil etgan. Shu bilan birga, ta’lim muassasasini tamomlab, birinchi bor ish izlayotgan, muddatli harbiy xizmatni o‘tagan yoshlar, xotin-qizlar, ayniqsa, bola parvarishi bo‘yicha ta’tildan qaytgan ayollarning ishga joylashishida sun’iy to‘siqlarga uchrash holatlari mavjud.

Ish bilan band aholi tarkibida norasmiy band kishilar ulushi (mehnat migratsiyasi) yuqoriligicha qolmoqda. Ish beruvchilar mehnat bozoriga chiqayotgan yoshlarning kasbiy malaka darajasi yetarli emasligidan e’tiroz bildirmoqda.

Aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko‘maklashish, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini ta’minlash, mehnat bozorini tartibga solishning yangi ta’sirchan mexanizmlarini tatbiq etish, aholini tadbirkorlikka va samarali bandlik shakllariga jalb etish, ishga joylashishga muhtoj shaxslarni kasb-hunarga tayyorlash sifatini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, raqobatli bozor tizimida mehnat motivatsiyasining o‘zgarishi mehnat samarasining pasayishiga olib keladi, ya’ni bosh maqsad jadallikka emas, balki ishlab chiqarishdagi samaradorlikka qaratilib, har qanday yo‘l bilan foyda olish maqsadi birinchi o‘rinda tura boshlaydi. Shu jihatdan ishchi kuchi bozorida sifatli mutaxassislarga bo‘lgan talab yanada talabchanroq jarayonga aylanadi.

Yoshlar ishchi kuchi bozoridagi asosiy talablar ularning noan’anaviy fikrlash, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida tez moslashuvchanlik, harakatchanlik, innovatsion jarayonlarni tez o‘zlashtirish va kasbiy o‘sishga harakat qilish, har bir shaxsning qobiliyati, yangi noan’anaviy qarorlar qabul qilishi, o‘z ishiga to‘la mas’uliyat bilan yondoshishi bilan baholanadi.

Yoshlarning ish bilan bandligining asosiy xususiyatlariga yoshlarda mehnatga nisbatan yangicha munosabatlarning shakllanayotganligi, yangicha qarashlarga ko‘nikish va kelajakka qaratilgan yo‘nalishni shakllantirish hisoblanadi. Ushbu sifatlarga ega bo‘lish yoshlarda rivojlanish istiqbollarini belgilash va aniq qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi.

Ish beruvchilar va o‘quv muassasalar o‘rtasida an’anaviy aloqalarining sustligi, ular o‘rtasidagi aniq maqsadli dastur va rejalarning mavjud emasligi, yosh

mutaxassislarni maqsadli tayyorlash ko‘lamlarining cheklanganligi ham bu jarayonga salbiy ta’sirini o‘tkazadi.

Raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasida yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlashda, birinchi navbatda, yosh mutaxassislarning kasbiy malakalari, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay olish imkoniyatlari, o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha olish qobiliyatlari kabi muammolarni hal qilish hisobga olinadi.

• Bugungi raqobatli jarayonda o‘z sohasi bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lgan, o‘z malaka va ko‘nikmalarini oshirgan, xorij tillari va axborot texnologiyalarni yaxshi o‘zlashtirgan yoshlarning ish topa olishlari kafolatlanadi.

• Yana bir tomoni ish beruvchilar yoshlardan o‘ta yuqori kasbiy mahorat, zamonaviy texnologiyalarni ishlata olish, ish mohiyatiga va sharoitlariga tez moslasha olishni talab qilmoqda, ammo ayrim hollatlarda yoshlarda aynan ana shu talablar mavjud emasligi namoyon bo‘lib qolmoqda.

• Yoshlarni ishga joylashtirish muammosining muhim hal qiluvchi tomoni ishchi kuchi bozori xizmatlari va ta’lim bozori xizmatlari o‘rtasidagi aloqalarni ta’minlovchi mexanizmlarning mavjud emasligidir.

• Yoshlar ishchi kuchi bozori quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: ayrim o‘smir yoshlarda kasbiy qiziqishning shakllanmaganligi; o‘quv muassasalari bitiruvchilariga ish beruvchilarning maqsadli buyurtmalari tizimining mavjud emasligi; kasbiy maqsadlarning o‘zgarganligi, yoshlarning zamonaviy ish beruvchilar talablariga javob bera olmasligi; yoshlar orasida ishga da’vogarlik jarayonining oshishi; ta’lim olish uchun xarajatlar hajmining oshib borishi; yosh mutaxassislar va xodimlarning mehnatga moslashuvchanligini amalga oshiruvchi dasturlarning mavjud emasligi; talab va taklifning nomutanosibligi; barqaror ish haqining kafolatlanmaganligi, mehnat shartlarining yetarli emasligi va ish o‘rinlarining sifatsizligi; ko‘pchilik hollarda mavsumiy va bir martalik norasmiy ish bilan bandlikning turli shakllarining mavjudligi va boshqalar.

• Ta’lim muassasalari bitiruvchilarining hududlarda ish bilan bandligini ta’minlovchi ish beruvchilarni imtiyozli soliqqa tortish va kreditlash hamda yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlash bo‘yicha ish beruvchilar faoliyatiga ko‘maklashuvchi boshqa rag‘batlantirish tizimini kengaytirish orqali yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish zarur.

• Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, yoshlar tadbirkorligi va yoshlar korxonalarini tashkil qilish amaliyotini rivojlantirish, yoshlarning biznes-loyihalariga maslahatlar berish va ekspertli kuzatib borish negizida ularning iqtisodiy tashabbuskorligining har qanday ko‘rinishini qo‘llab-quvvatlash borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni innovatsion faoliyatga asoslangan kichik biznes korxonalariga ko‘proq jalb etish quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko‘zda tutishi lozim: yoshlar tomonidan ilmiy g‘oya va ixtirolarning yaratilishini rag‘batlantirish;

• yoshlar tomonidan yaratilgan ilmiy g‘oya va ixtirolarning amalga oshirilishini ta’minlovchi ixtisoslashtirilgan loyihalashtirish korxonalari faoliyatini kengaytirish;

• tarkibida kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlari talabalari salmog‘i yuqori bo‘lgan mehnat jamoalariga innovatsion biznes-rejalarning imtiyozli asosda taqdim etilishini ta’minlash;

• yosh mutaxassislarning ilmiy g‘oyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etishini rag‘batlantiruvchi va muvofiqlashtiruvchi muassasalar faoliyatini faollashtirish;

• respublika miqyosida yoshlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy g‘oyalar va ishlanmalar tanlovini tashkil etish;

• yoshlarning ilmiy g‘oya, ixtiro va ishlanmalarini imtiyozli asosda patentlash va h.k.

Yoshlar ishchi kuchi bozorida bugun mavjud bo‘lgan ahvolni tahlil qila turib, quyidagi chora-tadbirlarni qo‘llash lozim: korxona va o‘quv yurtlari o‘rtasidagi

o‘zaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish; yoshlarning oliy ma’lumotga ega bo‘lishini to‘g‘ri yo‘naltirish; kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hamda yoshlar faolligini yanada oshirish; o‘z-o‘zini ish bilan band qilishga ko‘maklashish; yoshlarning vaqtincha yoki mavsumiy ish bilan bandligini ta’minlash; turli xil darajadagi yoshlarning ish bilan bandligi dasturlarini ishlab chiqish; yoshlarga, maktab o‘quvchilariga kasb tanlashi borasida maslahatlar berib borishni yanada rivojlantirish; ishchi kuchi bozoridagi holat haqida muntazam axborot berib borish va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish bilan bandlikning tarkibiy o‘zgarishi iste’molchilar talabi, investitsiya talabi va daromadlarning barqarorligini o‘zgartirishdagi umumiy talabga bog‘liq. Yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlashdagi davlat siyosatini amalga oshirish yoshlardagi ish kuchi xususiyatlarini hisobga olish, jumladan, ish bilan band bo‘lgan davrda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini qo‘llash, ularning manfaatlarini nazardan chetda qoldirmaslik zarur.

Yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishida:

– oliy va professional ta’limga qamrab olinmagan yoshlarni ish bilan ta’minlash;

– yoshlar o‘rtasida frilanserlik faoliyatini keng rivojlantirish; – maktabning yuqori sinflaridanoq kasbga o‘rgatish tizimini joriy etish;

– turli sohalardagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Yoshlar eksportda”, “Yoshlar investitsiyada”, “Yoshlar fermerlikda”, “Yoshlar qurilishda” kabi yo‘nalishlar bo‘yicha maxsus dasturlarni amalga oshirish;

– mahallalarda o‘smir yoshlarni “Ustoz-shogird” an’anasi doirasida hunarmandchilik va oilaviy tadbirkorlikka yaqindan jalb qilish;

– yoshlar turizmini jadal rivojlantirish hamda ular orasida turizmga asoslangan ishbilarmonlikni ommalashtirish;

– yosh mutaxassislarning xalqaro mehnat bozorida intellektual ishchi kuchi sifatida raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida ularga kasb ko‘nikmalarini xalqaro elektron platformalar orqali namoyon qilish uslublarini o‘rgatish;

– yoshlarning innovatsion g‘oyalari va loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida oliy ta’lim muassasalarida (biznes-inkubator, akselerator) dasturlar va fondlarni ko‘paytirish;

– “Yoshlar kichik sanoat zonalari”ni tashkil etish, ularda yoshlar loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish uchun zarur bo‘ladigan barcha infratuzilma obyektlarini joylashtirish;

– yoshlarni tadbirkorlik va fermerlikka jalb qilishga qaratilgan hududiy ixtisoslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish;

– joylarda yoshlarning tadbirkorlik klasterlarini va konsalting xizmatlarini tashkil etish bo‘yicha aniq dastur va rejalar ishlab chiqish;

– ta’lim muassasalarini tamomlab, birinchi bor ish izlayotgan, muddatli harbiy xizmatni o‘tagan yoshlar, xotin-qizlar, ayniqsa, bola parvarishi bo‘yicha ta’tildan qaytgan ayollarning ishga joylashishida yuzaga kelayotgan sun’iy to‘siqlarni bartaraf etish;

– norasmiy sektorda band bo‘lgan yoshlarning faoliyatini legallashtirish, yoshlarning xorijdagi mehnat faoliyatini amalga oshirish, adolatli va xavfsiz mehnat sharoitlariga bo‘lgan huquqlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, ularning ijtimoiy va huquqiy himoyasini, shuningdek, vatanga qaytganlaridan so‘ng jamiyatga qo‘shilishini ta’minlash lozim.

Hududlarda yoshlarning ishchi kuchi bozori samaradorligini oshirish, ish beruvchilar o‘zlarining zaxira kadrlarini va “istiqbolli” kasblar masalasi hamda ularning kelajakdagi rivojlanish jarayonlarini alohida ilmiy jihatdan tadqiq qilish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.

2. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

3. O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 27-iyunda imzolangan “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2021-yil 18-yanvarь, 23-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi.

5. https://strategy.uz/.